2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 81'42:81'23



Payziyeva Nurjahon Abduraxmonovna,
Namangan davlat universiteti
"O'zbek tilshunosligi" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

EMOTSIONAL-EKSPRESSIV VOSITALARNING PRAGMATIK FUNKSIYASI VA KOMMUNIKATIV TA'SIRI
(To'xtaxon Rahimova asarlari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada emotsional-ekspressiv vositalarning pragmatik funksiyasi va ularning kommunikativ jarayondagi ta'sir xususiyatlari To'xtaxon Rahimovaning bolalar adabiyotiga mansub asarlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional-ekspressiv birliklarning faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki so'zlovchining hissiy-baholovchi munosabati, ijtimoiy pozitsiyasi, kommunikativ niyati va adresatga munosabatini ifodalovchi pragmatik birlik sifatidagi xususiyatlari ochib beriladi. Xususan, erkalash-kichraytirish affikslari, murojaat shakllari, undovlar, personifikatsiya, onomatopeya, takrorlar va punktuatsion vositalarning badiiy matndagi vazifasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: emotsional-ekspressiv vositalar, pragmatika, pragmatik funksiya, kommunikativ ta'sir, kommunikativ niyat, ekspressivlik, emotsionallik, baholash, murojaat shakli, erkalash affiksi, undov, personifikatsiya, nutq vaziyati.

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ И КОММУНИКАТИВНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНЫХ СРЕДСТВ
(На материале произведений Тухтакхон Рахимовой)

Аннотация. В статье исследуются прагматическая функция эмоционально-экспрессивных средств и особенности их коммуникативного воздействия на материале произведений Тухтакхон Рахимовой. Рассматриваются не только информативные, но и эмоционально-оценочные, коммуникативно-прагматические возможности языковых единиц. Особое внимание уделяется обращениям, уменьшительно-ласкательным формам, междометиям, повторам, олицетворению, звукоподражанию и пунктуационным средствам.

Ключевые слова: эмоционально-экспрессивные средства, прагматика, прагматическая функция, коммуникативное воздействие, коммуникативная интенция, экспрессивность, эмоциональность, оценка, обращение, уменьшительно-ласкательные формы, междометие, олицетворение.

PRAGMATIC FUNCTION AND COMMUNICATIVE IMPACT OF EMOTIONAL-EXPRESSIVE MEANS
(Based on the Works of To‘xtaxon Rahimova)

Abstract. This article examines the pragmatic functions and communicative impact of emotional-expressive means based on the works of Uzbek children's writer To‘xtaxon Rahimova. The study focuses not only on the informational function of linguistic units but also on their ability to express the speaker's emotional and evaluative attitude, communicative intention, and relationship with the addressee. Particular attention is paid to forms of address, diminutive-affectionate suffixes, interjections, repetitions, personification, onomatopoeia, and punctuation as expressive means.

Keywords: emotional-expressive means, pragmatics, pragmatic function, communicative impact, communicative intention, expressiveness, emotionality, evaluation, forms of address, affectionate diminutives, interjections.

Kirish. Til insonlar o‘rtasidagi aloqa va axborot almashinuvining asosiy vositasi bo‘lish bilan birga, so‘zlovchining voqelikka munosabati, hissiy holati, bahosi va kommunikativ niyatini ifodalovchi murakkab tizimdir. Shu jihatdan til birliklarining imkoniyatlarini faqat nominativ va informativ vazifalar bilan cheklab bo‘lmaydi. Ayniqsa, badiiy matnda emotsional-ekspressiv vositalar nutq mazmunini boyitib, uning ta’sirchanligini oshiradi.

Emotsionallik shaxsning his-tuyg‘usi va ruhiy holatining tilda ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ekspressivlik fikrni kuchli, ta’sirchan va obrazli yetkazish xususiyatini anglatadi. Ular o‘zaro yaqin hodisalar bo‘lib, emotsional-ekspressiv vositalarni pragmatik jihatdan o‘rganishda ularning lug‘aviy ma’nosi bilan birga nutqdagi funksiyasi va adresatga ta’sirini ham hisobga olish zarur.

Mazkur masala bolalar adabiyotida alohida ahamiyatga ega. Bola personajining nutqi uning yosh xususiyatlari, hissiy dunyosi va atrof-muhitni idrok etishini aks ettiradi. Shu bois emotsional-ekspressiv birliklar bolalar adabiyotida nafaqat badiiy bezak, balki obraz yaratish va kommunikativ ta’sirni kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘xtaxon Rahimova asarlarida bolalar dunyosi, tabiat, oila, odob-axloq va milliy qadriyatlar tabiiy hamda hissiy jihatdan boy nutqiy vositalar orqali ifodalangan. Xususan, murojaat shakllari, erkalash birliklari, undovlar, takrorlar va personifikatsiya qahramonlarning o‘zaro munosabatini ochishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi To‘xtaxon Rahimova asarlaridagi emotsional-ekspressiv vositalarning pragmatik funksiyasi va kommunikativ ta’sirini nutq vaziyati, kommunikativ niyat hamda adresat omili bilan bog‘liq holda tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pragmatikaning rivojlanishida nutqning kommunikativ maqsadi, so‘zlovchining niyati va nutq aktlari muhim o‘rin tutadi. J. Searle nutq aktlarini kommunikativ faoliyatning muayyan shakllari sifatida talqin qilib, ularni o‘rganishda so‘zlovchining kommunikativ maqsadini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [2]. Bu yondashuv emotsional-ekspressiv birliklarning nafaqat shakliy va semantik, balki pragmatik vazifalarini ham aniqlash imkonini beradi.

G. Leech esa pragmatik tahlilda so‘zlovchi maqsadi, adresatga munosabat va nutq vaziyatining ahamiyatini ko‘rsatadi [3]. Shu bois bir xil til birligi turli kommunikativ sharoitlarda turlicha pragmatik ta’sirga ega bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilshunosligida emotsionallik va ekspressivlikning verbal hamda noverbal ifodalanishi ham tadqiq etilgan. G. Roziqova va M. Burxonova emotsional mazmunning noverbal vositalar orqali ifodalanish xususiyatlarini yoritib, uning kommunikativ jarayondagi ahamiyatini ko‘rsatadilar [1].

To‘xtaxon Rahimovaning “Tabiatim jonu dilim” asarida esa bolalar, kattalar va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar hissiy hamda obrazli nutqiy vositalar orqali ifodalangan [4]. Biroq emotsional-ekspressiv vositalarning bolalar adabiyotidagi pragmatik funksiyasi, xususan, ularning kommunikativ niyat, adresat va nutq vaziyati bilan aloqasi yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Mazkur maqola ana shu masalani yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual, semantik-pragmatik, qiyosiy va komponent tahlil usullaridan foydalanildi. Emotsional-ekspressiv birliklar o‘zlarining lug‘aviy ma’nosi bilangina emas, balki matndagi funksiyasi, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va adresatga ko‘rsatadigan ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganildi.

Pragmatik tahlilda nutq mazmuni grammatik shakl bilan cheklanmasdan, kommunikativ vaziyat, nutq ishtirokchilarining o‘zaro munosabati, ijtimoiy masofa va so‘zlovchining kommunikativ niyati bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Searlening nutq aktlari haqidagi qarashlari [2] hamda Leechning pragmatik tamoyillari [3; 5] tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Tadqiqot materiali sifatida To‘xtaxon Rahimovaning “Tabiatim jonu dilim” asari [4] va maqolada tahlil qilinayotgan boshqa badiiy materiallardan foydalanildi. Asarlardagi murojaat shakllari, erkalash-kichraytirish birliklari, undovlar, personifikatsiya, takrorlar va boshqa ekspressiv vositalarning qo‘llanish holatlari kontekstual jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. To‘xtaxon Rahimova asarlarida emotsional-ekspressiv vositalarning muhim ko‘rinishlaridan biri erkalash va kichraytirish ma’nosini ifodalovchi murojaat shakllaridir. Bunday birliklar personajning yosh xususiyatini

ko‘rsatish bilan birga, so‘zlovchining adresatga bo‘lgan samimiy, mehribon va g‘amxo‘r munosabatini ifodalaydi. Masalan, Xojimat otaning nabirasiga “toychog‘im” deb murojaat qilishi asarda takroran uchraydi:

“Katta bo‘lganingda o‘qib, bilib olasan toychog‘im!”

“...Sen dam olib tur, men ariq daxanasini bo‘g‘ib kelay... toychog‘im!”

“Bobo, boramizmi?” – dedi Xojimat ota yuzlanib. – “Ha, toychog‘im, boramiz, qolgan bir qismini ham sug‘orib kelamiz”.

Bu yerda “toychog‘im” nafaqat murojaat, balki mehr, yaqinlik va samimiylikni ifodalovchi pragmatik vositadir. Uning takroriy qo‘llanishi qahramonlar o‘rtasidagi doimiy mehr-muhabbat munosabatini ta’kidlaydi. Shuningdek, Bahodirning daraxtga “ko‘chatvoy” deb murojaat qilishi personifikatsiya bilan uyg‘unlashib, bolaning tabiatga nisbatan mehrli munosabatini ochib beradi. Demak, emotsional-ekspressiv murojaatlar insonlararo munosabat bilan bir qatorda inson va tabiat o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni ham ifodalashi mumkin.

“Buvijonlar maktabi – oila ibrati” asarida “bolam” murojaati ko‘proq nasihat va tarbiyaviy fikrlar tarkibida qo‘llanib, nutqning ta’sirchanligini yumshatadi. Bunda murojaat shakli samimiylik va tarbiyaviy ta’sirni birlashtiradi. Shu jihatdan murojaat birliklarining pragmatik qiymati ularning lug‘aviy ma’nosidan tashqari, nutq vaziyati va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat bilan belgilanadi.

Emotsional-ekspressiv vositalarning yana bir faol turi undovlardir. “Tabiatim jonu dilim” asaridagi “Urre, ertaga ko‘chat ekamiz!” gapida “Urre” undovi bolaning quvonchi va hayajonini bevosita ifodalaydi. Oddiy xabar shaklidagi “Ertaga ko‘chat ekamiz” gapiga undovning qo‘shilishi fikrning emotsional ta’sirini kuchaytirib, o‘quvchiga personajning ruhiy holatini tez va aniq his etish imkonini beradi.

Takrorlar ham emotsional-ekspressivlikni kuchaytiruvchi vositalardan biridir. Ular hayajon, ta’kid, qat’iyat, iltimos, norozilik yoki quvonch kabi holatlarni kuchaytirib, bola nutqining tabiiyligini ta’minlaydi. Bunday vositalarning pragmatik ta’siri, avvalo, kontekst va adresat omili bilan belgilanadi. Bir xil birlik turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha ma’no va ta’sir hosil qilishi mumkin.

Badiiy matnda emotsional-ekspressiv vositalarning kommunikativ ta’siri personajlararo muloqot bilangina chegaralanmaydi. Ular o‘quvchi adresatga ham ta’sir ko‘rsatib, qahramonning hissiy holatini tasavvur qilish va unga nisbatan muayyan munosabat shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli mazkur vositalar personajlararo hamda muallif-o‘quvchi kommunikatsiyasini bog‘lovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Rahimova asarlaridagi emotsional-ekspressiv vositalar, asosan, affektiv, baholovchi, kontakt o‘rnatish, ta’sir o‘tkazish, ekspressiv-kuchaytiruvchi, obraz yaratish va milliy-madaniy funksiyalarni bajaradi. Mazkur funksiyalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bitta emotsional-ekspressiv birlik bir vaqtning o‘zida bir necha pragmatik vazifani bajarishi mumkin. Masalan, “toychog‘im” mehr va yaqinlikni, “bolam” samimiylik bilan birga tarbiyaviy ta’sirni, “Urre” esa hissiy holat va kommunikativ faollikni ifodalashga xizmat qiladi.

Demak, emotsional-ekspressiv vositalarning pragmatik qiymati ularning lug‘aviy xususiyatlaridan tashqari, kontekst, kommunikativ vaziyat, adresat va so‘zlovchining niyati bilan belgilanadi.

Muhokama. Emotsional-ekspressiv vositalarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ularning kommunikativ qiymatini faqat lug‘aviy ma’no asosida belgilash mumkin emas. Har qanday ekspressiv birlik muayyan nutq vaziyatida, muayyan so‘zlovchi tomonidan ma’lum adresatga qaratilgan holda qo‘llanadi. Shuning uchun uning haqiqiy pragmatik mazmuni kontekst, kommunikativ maqsad va ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabat bilan belgilanadi.

Leechning pragmatik qarashlari ham kommunikativ vaziyat va ijtimoiy munosabatlarni hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi [3; 5]. Rahimova asarlaridagi murojaat shakllari buni yaqqol namoyon etadi. “Toychog‘im”, “bolam”, “ko‘chatvoy” kabi birliklarning har biri lug‘aviy jihatdan muayyan ma’noga ega bo‘lsa-da, matndagi kommunikativ vazifasi ularning bevosita lug‘aviy mazmunidan kengroqdir.

Bundan tashqari, bolalar adabiyotida emotsional-ekspressiv vositalarning o‘quvchi bilan bog‘liq pragmatik funksiyasi ham muhim. Bola o‘quvchi personajning hissiy holatini bevosita va tez qabul qilishi uchun matnda emotsional markerlar zarur bo‘ladi. Undov, murojaat, takror yoki personifikatsiya kabi vositalar matnni bolaning psixologik qabuliga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, ular kattalar o‘quvchisiga ham bola dunyosini anglash imkonini beradi.

Rahimova asarlaridagi emotsional-ekspressiv vositalarning yana bir muhim xususiyati ularning tarbiyaviy mazmun bilan uyg‘unlashuvidir. Muallif o‘quvchiga ma’lum axloqiy xulosani bevosita bayon qilish bilan cheklanmay, uni personajlar o‘rtasidagi tabiiy muloqot, hissiy munosabat va vaziyat orqali ham yetkazadi. Shu sababli ekspressiv birliklar estetik vazifadan tashqari kommunikativ-tarbiyaviy vazifani ham bajaradi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida To‘xtaxon Rahimova asarlaridagi emotsional-ekspressiv vositalarning pragmatik xususiyatlari bir necha jihatdan namoyon bo‘lishi aniqlandi. Birinchidan, ushbu birliklar personajlarning hissiy holatini bevosita ifodalash orqali nutqning emotsional fonini yaratadi. Ikkinchidan, murojaat va erkalash shakllari personajlar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik masofani belgilaydi. Uchinchidan, undov va takrorlar kommunikativ ta’sir kuchini oshirib, adresat e’tiborini muayyan nuqtaga yo‘naltiradi. To‘rtinchidan, personifikatsiya va unga hamroh bo‘lgan emotsional murojaatlar bola ongidagi tabiat obrazini insoniy munosabatlar tizimiga yaqinlashtiradi.

Tahlil natijalari emotsional-ekspressiv vositalarning badiiy matnda mustaqil, tasodifiy bezak sifatida emas, balki muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi funksional birlik sifatida qo‘llanishini ko‘rsatdi. Ularning tanlanishi personajning yoshi, suhbatdoshning maqomi, ular o‘rtasidagi munosabat, nutq vaziyati va kommunikativ niyat bilan bog‘liq.

Shuningdek, mazkur tahlil asosida bolalar adabiyotidagi personaj nutqini pragmalingvistik o‘rganish uchun nutq aktlari, adresat omili, emotsional-ekspressiv vositalar va diskursiv kontekstni yagona tizimda ko‘rib chiqish samarali ekanligi aniqlandi. Bunday yondashuv bola personajining nutqiy qiyofasini chuqurroq ochishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalaridan bolalar adabiyoti, pragmalingvistika, nutq o‘stirish metodikasi va lingvokulturologiya yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlarda, shuningdek, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim uchun badiiy matnlarni tanlash va tahlil qilish jarayonida foydalanish mumkin.

Xulosa. Emotsional-ekspressiv vositalar tilning hissiy bo‘yoqdor birliklari bo‘lish bilan birga, kommunikativ jarayonning muhim pragmatik komponentidir. Ular so‘zlovchining hissiy-baholovchi munosabatini ifodalash, adresatga ta’sir ko‘rsatish va kommunikativ niyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

To‘xtaxon Rahimova asarlari tahlili erkalash-kichraytirish shakllari, murojaatlar, undovlar, takrorlar va personifikatsiya personajlarning hissiy holati hamda o‘zaro munosabatini ochishda muhim vosita ekanini ko‘rsatdi. Jumladan, “toychog‘im” samimiylik va mehrni, “bolam” mehr bilan birga tarbiyaviy ta’sirni, “Urre” esa quvonch va hayajonni ifodalaydi.

Emotsional-ekspressiv birliklarning pragmatik qiymati ularning lug‘aviy ma’nosi bilangina emas, balki kontekst, nutq vaziyati, so‘zlovchi va adresat munosabati hamda kommunikativ maqsad bilan belgilanadi. Ayniqsa, bolalar adabiyotida bunday vositalar personaj nutqining tabiiyligini ta’minlash, uning ruhiy holatini ochish va milliy-madaniy qadriyatlarni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ularni pragmalingvistik jihatdan o‘rganish badiiy matnning kommunikativ va tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Розиқова Г., Бурхонова М. Новербал воситаларнинг эмотив хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2022. – №2. – Б. 11.
2. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Leech G. N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.
4. Раҳимова Т. Табиатим жону дилим. – Наманган: “Fazilatorgtexservis”, 2025.
5. Leech G. N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – P. 10–11.
6. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694